



# **SOHIBQIRON YULDUZI**

Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal

---

## **СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ**

Общественно-исторический, историко-популярный  
журнал

---

## **OWNER STAR**

Socio-historical, historical and popular magazine

Qarshi-2024



**Bosh muharrir:**

Ochil Bo‘riyev

**Nashr uchun mas’ullar:**

Ravshan To‘xtamishev

Ilhom Tog‘ayev

## **TAHRIR HAY’ATI**

### **A’ZOLARI:**

akademik Akmal Saidov  
akademik Anatoliy Sagdullayev  
akademik Dilorom Yusupova  
Sirojiddin Sayyid  
prof. Abdurahim Erkayev  
prof. Qahramon Rajabov  
prof. Yulduz Ergasheva  
prof. Bahodir Eshov  
filol.f.d. Nafas Shodmonov  
To‘lqin Hayit  
t.f.d. G.Mo‘minova  
prof. Shokir G‘afforov  
filol.f.d. Xo‘jamurod Jabborov  
filol.f.d. Damin To‘rayev  
t.f.d. Akram Hasanov  
prof. Kamoliddin G‘aniyev  
t.f.n.dots. Matluba To‘rayeva  
t.f.d. Faxriddin Rahmonov  
t.f.f.d. Saodat Murtazova  
t.f.f.d. Ra’no To‘xtayeva  
t.f.f.d. Sarvinoz Omonova  
t.f.f.d. Oksana Rakmonkulova

### **Manzilimiz:**

Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2-uy. Telefon: 91.466-80-32

Elektron manzilimiz: sohibqiron-jurnali@mail.ru



# SOHIBQIRON YULDUZI

## СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ

### OWNER STAR

Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal 2010 yildan boshlab chiqarilmoqda

**Muassis:**  
**SOHIBQIRON**  
**SHULASI M.CH.J.**  
Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2 –uy.  
Telefon: 91.466-80-32  
Sayt:  
[www.sohibqiron-yulduzi.uz](http://www.sohibqiron-yulduzi.uz)  
E-mail:  
[sohibqironjurnali@mail.ru](mailto:sohibqironjurnali@mail.ru)  
Qashqadaryo viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2012 yil  
12 marta  
14-076 raqami bilan ro'yxatga olingan.  
Jurnal yilda 4 marotaba chop etiladi.  
Jurnaldan ko'chirma olinganda manba qayd etilishi shart.  
Nashr indeksi - 4074 ISSN 2181-2845  
7-sonli nashr.  
Terishga topshirilgan sana 16.10.2024 y.  
Nashrga berilgan sana 05.11.2024 y.  
Chop etilgan sana 28.11.2024 y.  
Bichimi 60x84 1/8. Times garniturasi. Shartli bosma tabog'i 6,26. Nashr bosma tabog'i 6,25. Adadi 100.  
Buyurtma №410  
Jurnal «Rhoto Express» ishlab chiqarish korxonasi bosmaxonasida chop etildi.  
**Bosmaxona manzili:**Qarshi shahri Mustaqillik shoh ko'chasi,22-uy.

### 2024/ 1- MAXSUS SON

### MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

#### TADQIQOT / ИССЛЕДОВАТЬ / RESEARCH

Normatov O. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirilishi xususida.....	4
Qandov B. Turkistonagi siyosiy jarayonlarda atoqli davlat arbobi Turor Risqulovning tutgan o'rni va ijtimoiy faoliyati .....	10
A.Горин. Монеты “герая” из крепости узундара.....	18
Z.Haydarova. Motiv va motivatsiya - o'quvchining qiziqishlari, bilish darajasi hamda ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadigan omil sifatida.....	29
Sh.Parmonov. Rossiya imperiyasi siyosatida general Jo'rabeckning o'rni.....	36
A.Toshtemirov. Muhammad Ali o'tkazgan islohotlarning Misrning xalqaro maydondagi mavqeyini mustahkamlashdagi o'rni .....	42
U.Rahmonov. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy va madaniy qarashlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari.....	50
S.Saparov. Kidariylarning Markaziy Osiyo va Hindistonga ko'chish sabablari va yo'nalishlari .....	54
A.Xolmo'minov. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarda tabiat kulti bilan bog'liq qarashlar(Toshkent viloyati misolida).....	61
Misabayeva M. Turkistonagi ozodlik harakatining tarixshunosligi .....	66
Usmonaliyeva M. "Taraqqiy" – birinchi milliy gazeta .....	70
L.Ochigliyev. Qashqadaryo vohasida ekologik turizmning holati .....	75
Sh.Qilicvhev. Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruvi idorasi .....	82
Sh.Luqmonov. RSFSR hududida joriy qilingan yangi iqtisodiy siyosatning Turkiston pul munosabatlari tizimida tutgan o'rni .....	88



UNDAGI ILMIY YONDASHUVLARNING SHAKLLANISH TARIXI.  
INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 1(16), 53-58.

22. Murotjon, X. O. (2023). Measures to be Implemented to Preserve and Protect Architectural Monuments in the City of Bukhara. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(8), 402-406.

## ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATIDA GENERAL JO'RABEKNING O'RNI

**Parmonov Sharofiddin Shavkatovich**

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: [parmonovsharofiddin96@gmail.com](mailto:parmonovsharofiddin96@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 1840-1906 yillarda yashab o'tgan general mayor Jo'rabet Qalandar qori o'g'lining Rossiya imperiyasi siyosatida tutgan o'rni qilgan ishlari xizmat pillapoyasi haqida fikr va mulohazalar berilgan. Umuman olganda Jo'rabet Qalandar qori o'g'li Buxoro amiri amir Muzzaffarga umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun o'rtadagi gina qudratni yig'ishtirib birlashishni taklif qiladi lekin amir bu taklifni qabul qilmay katta xatoga yo'l qo'yadi. Amirning xoinligi tufayli yengilgan Jo'rabet bilan Bobobek tog'-toshlarda uzoq muddat sarson-sargardon kezganlaridan keyin najot va boshpana so'rab Xudoyer xon huzuriga borishga majbur bo'ladilar. Xudoyerxon xiyonatkorlikka yo'l qo'yib sarkardalarni tutib fon Kaufman ixtiyoriga jo'natib yuboradi. Asir sifatida Toshkentga, general-gubernator ixtiyoriga majburan jo'natilgan Jo'rabet bilan Bobobek bu yerda ancha vaqt uy qamog'ida saqlangach, Rossiya fuqaroligini qabul qilishga va rus armiyasi xizmatiga o'tishga majbur bo'ladilar. Qo'qon xonining quyushqonga sig'maydigan ishidan dargazab bo'lgan Jo'rabet O'zgand, Xo'jand, Andijon shaharlari ustiga rus askarlari qilgan yurishlarda qatnashib, o'ziga dog tushirganini bilmay qoladi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Turkiston general-gubernatori, Peterburg, N. Ostroumov V. Bartold, Frunze, Ismoilbek G'aspirali.

**Аннотация.** В этой статье даются отзывы и размышления о роли генерал-майора Джурабека Каландара кары оглы, проживавшего в 1840-1906 годах, в политике Российской империи. В целом Джурабек Каландар предлагает Эмиру Бухары Амиру Музффару, сыну Кари, объединиться, собрав силы Джины в середине, чтобы сражаться против общего врага, но Эмир совершает большую ошибку, не принимая это предложение. Потерпев поражение из-за предательства эмира, Джурабек и бабобек вынуждены отправиться к Худоярхану за спасением и убежищем после долгих скитаний по скалам. Худояр-Хан, допустив измену, захватывает военачальников и отправляет их в распоряжение



фон Кауфмана. Джурабек и бобобек, насильно отправленные в Ташкент в качестве пленников в распоряжение генерал-губернатора, после длительного пребывания здесь под домашним арестом вынуждены принять российское гражданство и поступить на службу в российскую армию. Разъяренный поступком кокандского хана, Джурабек не знает, что участвовал в походах русских войск над городами Узген, Ходжент, Андижан и пал сам.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, генерал-губернатор Туркестана, Петербург, Н. Остроумов В. Бартольд, Фрунзе, Исмаилбек Гаспирели.

**Annotation.** In this article, comments and reflections on the service saw the role of the son of Major General Zhurabek Qalandar qori, who lived in 1840-1906, in the politics of the Russian Empire. In general Jorabek Qalandar qori offers his son Emir Muzzaffar, Emir of Bukhara, to unite by assembling a gina power in the middle to fight a common enemy, but the Emir makes a big mistake by not accepting this offer. Overcome by Emir's treachery, Jorabek and Bobobek are forced to go to the Lord Khan for salvation and asylum after long wanderings in the mountains. The Lord allows treachery and captures the warlords and sends them to Von Kaufman's disposal. With Zhurabek, forcibly sent as a prisoner to Tashkent, at the disposal of the governor-general, Bobobek is forced to accept Russian citizenship and transfer to the service of the Russian army after being held here under house arrest for quite some time. Zhurabek Özgand, Khojand, who was devastated by the qooqan Khan's impenetrable work, is unaware that he has been dogged by Russian soldiers by taking part in marches over the cities of Andijan.

**Keywords:** Central Asia, Governor General of Turkestan, Petersburg, N. Ostroumov V. Bartold, Frunze, Ismailbek Gaspirali.

**Kirish.** «Историческом вестнике» gazetasida General-mayor Jo‘rabekning quyidagi tavsifi keltirilgan: "Jo‘rabekning ma’naviy fazilatlari uning sport fizikasiga to’liq mos keladi. Bu har jihatdan katta shaxs edi. Hayotning hayratlanarli burilishlari bilan murakkablashgan tabiiy aql, xarakterning ajoyib kuchi,adolat va o’zini o’zi boshqarishning to’liq qadr-qimmati unga mahalliy aholi orasida mashhurlik va hurmatga sazovor bo’ldi. ... Din nuqtai nazaridan, Jo‘rabek tor aqidaparastlikdan yiroq edi, chunki Markaziy Osiyolik mahalliy aholi hali ham Yevropa sivilizatsiyasi ta’sir qilmagan muhitda o’sgan.[1] Jo‘rabek o‘zining murakkab hayot yo‘li davomida yuksak fazilat, baquvvat jismiga munosib zakovati, sofdilligi bilan do‘stlari, vatandoshlari orasida hurmatga sazovor bo‘lgan. Yurtdoshlar uning maslahati bilan ish tutgan. Jo‘rabek yevropacha qarashlarni o‘zlashtirgan holda umrining oxiriga qadar millatiga, diniy e’tiqodiga sodiq bo‘lgan. Turkiston general-gubernatori tuzog‘iga xiyonat yo‘li bilan tushirilgan Jo‘rabek 1868 yildan to umrining oxirigacha (1906 yil) Toshkentda va Toshkent yaqinidan o‘zi sotib olgan Qorasuvda umr o‘tkaz



di. Butun shu davr ichida Jo‘rabek o‘lka ijtimoiy- madaniy hayotida faol qatnashdi. Jo‘rabek avvalo o‘z xalqining o‘tmishdagi boy madaniy merosiga zo‘r ixlos bilan qarar, mullo bobolarimiz qoldirgan noyob xazinalarni topish, jamlash va kelgusi avlodlarga qoldirishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadlaridan deb bilar edi.[2]

1876-yilda Jo‘rabek Peterburgda bo‘lib, sharqshunoslarning yirik xalqaro anjumanida ishtirok etgan. Rus tilida muloqot qilishni yaxshi o‘zlashtirgan. 1902-yilda akademik V. Bartold bilan uchrashgan va suhbatlarida bo‘lgan. Jo‘rabek ko‘p tilni bilgan aqli kishi bo‘lgan. Uning qo‘lyozmalarini orasida “Bahrul asror”, “Tavorixiy gulzida”, “Nusratnama”, “Jomi-ut-tavorix”, “Tarixi Sohibqiron Amir Temur ko‘ragon”, “Ravzat-us-safo”, “Tarixi Binokat” kabi nodir asarlar bo‘lgan[3]. Jo‘rabek hatto Muhammad Yunus Mulla Bobojon Shahrisabziyni huzuriga chaqirtirib, “Lison ut-tayr”, “Chor devon”, “Hamsa” kitoblarini ko‘chirtirgan. 1912-yilda A.Semyonov va N.Petrovskiy hamkorligida Jo‘rabek qo‘lyozmalarining ro‘yxati tuziladi. Ular, qo‘lyozmalarning suiqaiddan so‘ng, Qorasuvdagagi bog‘dan shahardagi Jo‘rabek xovlisiga kuchish arafasida yo‘qolganidan afsuslanadilar[4]. Jo‘rabekning maqbarasi Qorasuvda bo‘lib, bu maqbara o‘g‘illari tomonidan qurilgan. Jo‘rabekning katta o‘gli Olloqulibek Qizil Armiya safida Frunze qo‘lida xizmat qiladi

**Adabiyotlar tahlili.** Mavzuning tarixshunoslik masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni uch guruhga bo‘lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruhni o’sha davrda yashab o‘tgan mahalliy tarixchilar asarlari. Ikkinci guruhga Rossiya impyeriysi va sovet hukmronligi davrida harbiylari, sayyoohlar, sharqshunoslari va boshqa soha vakillari tomonidan yozilgan estaliklar, XIX-XX asr boshlarida chop etilgan turli adabiyotlar tashkil qiladi. Uchinchi guruh mustaqillik yillarda nashr etilgan adabiyotlar, amalga oshirilgan tadqiqotlardan iborat. A.R.Muhammadjonov muharrirligi ostida nashr etilgan « Населенные пункты Бухарского эмирата » nomli asarda voha bekliklari va ularning ma‘muriy tuzilmasi, mavze va qishloqlarining nomlanishi Buxoro amirligi qushbegi devonxonasi jamg‘armasi xujjatlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, O‘.M.Mavlonov, B.S.Yakubov, A.A.Odilov, R.E.Xolikova, A.M.Xasanov, A.B.Xolikulov va M.S.Hamidovalar tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalarda ham mavzuga oid tegishli masalalar yoritilgan.

**Tadqiqot usullari.** Mazkur ishda yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida Buxoro amirligi misolida o‘zbek xalqi davlatchiligiga xos an‘analari, markaziy davlat hokimiyatining mahalliy ma‘muriy birliklar bilan munosabatlari tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqarildi va amaliy tavsiyalar berildi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston tarixshunoslida Buxoro amirligining XVIII asrning ikkinchi yarmidan - XX asr boshlaridagi tarixini yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirib, muhim yangi xulosalar taqdim



etadi.

### Tadqiqot natijalari

Jo‘rabek va Bobobeklarning ziddiyatli hayot yo‘li hanuzgacha tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. Ba’zan ularni Qo‘qon xonligini egallashda ishtirok etganliklari uchun o‘z xalqiga qarshi urushganlikda ayblashadi. Bu fikrda jon bor, albatta. Biroq shuni ta’kidlash lozimki, avvalo Xudoyorxonning o‘zi o‘rtalaridagi do‘stlikni yuzxotir qilmasdan beklarni tutib berib, ularni yuragida intiqom o‘tini yoqqan. Ikkinchи tomondan tarixiy manbalarda dushmanga qarshi kurashda beklar Buxoro amiriga buysunmasdan o‘zlarini mustaqil o‘lka egalari deb pul zarb qilishlari ularning birligiga putur yetkazdi, deyiladi. Jo‘rabek va Bobobek, aslida, bu yo‘ldan borishmagan. Ular Muzaffarning amirlik chegaralarini buzib, ichkariga bostirib kelayotgan Rossiya imperiyasi qo‘shinlarini haydab yuborish o‘rniga, Qo‘qon xonligiga qarshi urush olib borishidan norozi bo‘lishgan. Beklar mamlakatni birlashtirib, ruslarga qarshi kurashadigan amir Muzaffar emas balki Abdumalik to‘ra deb hisoblashgan[5].

**Muhokama natijalari.** Muammonnig yana bir tomoni shundaki, qo‘shinlari tarqatib yuborilgan beklar har jihatdan Turkiston general gubernatoriga qaram bo‘lib qolgan edilar. O‘z navbatida beklar Kaufman faqat Rossiyaga emas, Turkiston xalqlariga ham farovonlik va ma’rifat keltiradi, deb ishongan bo‘lishi mumkin. Chunki Rossiya imperiyasi o‘lka xalqlariga nisbatan olib borgan mustamlakachilik siyosatining asl mohiyatini keyin tushunib yetgan Jo‘rabek bosqinchilarga nisbatan norozilik kayfiyatida bo‘lganligini isbotlovchi dalillar ham yetarli. Bu hol ayniqsa, 1882- yilda Kaufman vafot etganidan so‘ng general-leytenant N.G. Chernyaev davrida yaqqol sezilgan.

Turkiston o‘lkasining ijtimoiy va siyosiy hayotini o‘rganish bilan o‘sha vaqtarda shug‘ullangan N.P. Ostroumovning fikricha, rus tilini puxta o‘rgangan Jo‘rabek 1880-yillardan o‘zini to‘la mustaqil his etib, rus ma’murlari ishlariga bemalol aralasha boshlagan. Xatto, general Chernyaevning joriy yilda ixtiyoridagi barcha mablag‘larni sarflab bo‘lib, yana xazinadan pul olish ilinjida Amudaryodan Kaspiy dengizigacha suv yo‘li ochish uchun amalga oshmaydigan rejalar tuzayotganini tanqid qiladi. Masalan, Chernyaev Buxoro hududi orqali telegraf simlarini o‘tkazmoqchi bo‘lganda Jo‘rabek: “Agar sizga Buxoro kerak bo‘lsa oling-u egalik qiling. Men esa yashash uchun sizning hukmdoringiz yoniga ketaman”. - deb aytgan so‘zları uning qarashlarini hazm qilolmayotganligini, Chernyaevning harakatlari nafsoniyatiga tegayotganligini ko‘rsatadi. Yuqori darajadagi uchrashuvlardan birida Jo‘rabek “Agar sizlar (ruslar) O‘rta Osiyoda mustahkam o‘rnashib olishni o‘ylaganlariningda qo‘llaringizda nafaqat G‘uljani, balki Qashqarni, Buxoro bilan Xivani ham ushlab turgan bo‘lar edilaringiz. Aks holda o‘z Rossiyalaringga qaytib



ketishlaringga to‘g‘ri kelar edi”, - degan fikrni bildirgan. Jo‘rabek Chernyaevga berilgan “Qaxramonlik” nishonini ham katta xato ish deb hisoblaydi.

N. Ostroumov Jo‘rabekning oshib borayotgan qaysarligini o‘rganib, shunday xulosaga keladi: “Beixtiyor o‘ylab qolasan kishi. Qoloq va ojizgina qurollangan begona xalqlarni bosib olishimiz mumkin ekanu, biroq boshqa kamchiliklarimizni hisobga olmaganda o‘zimizga ortiqcha baho berishimiz beparvo tanballigimiz hamda davlat idora usularidagi qoloqligimiz tufayli ularni boshqarishni bilmas ekanmiz. Boshqarishda bir-birimizga yordamlashish o‘rniga halaqit beramiz. Bir ishni boshlasak, oxiriga yetkazmaymiz. Biz mahalliy aholining na tilini, na urf-odatini, na dinini o‘rgandik”[4].

Mahalliy aholi o‘rtasida mavqeyi baland bo‘lgan Jo‘rabekning Chernyaevga qarshi norozilik kayfiyatini hisobga olib, Rossiya imperiyasi hukumati uni chaqirib oladi. Turkiston general gubernatorlari S.M. Duxovskiy hamda N.A.Ivanovlar ham Jo‘rabekning mavqeyini hisobga olib, yaxshi munosabatda bo‘lganlar. Uning g‘azab o‘tini bosish maqsadida unvonlar, ordenlar bilan taqdirlaganlar. Jo‘rabekka general-mayor unvoni berilishi munosabati bilan o‘z vaqtida matbuotda shunday xabar bosilgan:

“Ushbu 1901-yilda may oyning 6-kunida ul baland darajali janob “voyenniy minister”, ya’ni Rusiya askarlariga vazir bo‘lib turuvchi general Kuropatkin Peterburg shahridan janob polkovnik Jo‘rabekka shul tariqa telegram yuborib, marhamati oliy qilibdilarkim sizning Rusiya davlatiga yaxshi xizmat qilganingiz, azim imperator hazratlari generalingizga mayor unvonini marhamati oliy qildilar”.

Yuqorida fikrlardan Rus ma’muriyati mustamlakachilikning tub mohiyatini tushunib yetgan Jo‘rabekning isyonkorlik tabiatidan cho‘chib, u bilan munosabatni buzmaslikka harakat qilgani ko‘rinib turibdi. Aslida, Rus hukumatining xavotirlangani bejiz emas edi. Professor Sharif Yusupovning ta’kidlashicha, 1905-yil “Qonli yakshanba” ta’sirida Toshkentda ommaviy ish tashlash va namoyishlar kuchaygan bir paytda ya’ni 15-noyabr hamda 15, 22 va 29-dekabr kunlari Jo‘rabek boshchiligidagi yig‘inlar o‘tqazilib, mamlakatda vujudga kelgan murakkab vaziyatdan foydalanish va o‘lkani chidab bo‘lmas darajadagi og‘ir ahvoldan olib chiqish choralarini ko‘rish masalasi kun tartibiga qo‘yiladi.[2] Jo‘rabek boshchilik qilgan bu ish Turkiston general-gubernatori jo‘natgan bir maxfiy hujjat quyidagicha baholangan: “Yerliklar orasida o‘zlarining turmushini yaxshilash to‘g‘risida hukumatga ariza berish uchun harakatlar bo‘lib turibdi. Shu sababli yerli xalq o‘zining maqsadiga erishish uchun Rossiya hukumatining xozirgi qiyin ahvoldidan foydalanmaydi, deb bo‘lmaydi”.

Jo‘rabekning o‘ldirilish sabablari to‘la ochilmagan bo‘lsada, o‘z vaqtida turli fikrlar bildirilgan. Ayrimlar uning o‘limida Buxoro amirining, ayrimlar esa Turkiston



general-gubernatorining qo‘li bo‘lgan deyishadi. Masalan, Turkiston viloyatining gazetasining 1906-yil 8-fevral sonida quyidagicha ma’lumot berilgan: Marhum general-major Jo‘rabekni o‘ldirgan bosmachilar ichidan uch nafari topilib, mahbus bo‘linubdir.[6] Chunonchi, biri armani Nerses Osipov, ikkinchisi Buxoro amiriga tobe Jo‘rabet Ortiqboy o‘gli, uchinchisi Samarqand shahrining fuqarosi Qodir Xudoyberdi o‘g‘li Jo‘rabekning o‘ldirilishiga uning jadidchilik asoschisi, turkiy xalqlar lideri Ismoilbek G‘aspirali (1851-1914) bilan xufiya ravishda 2-3 marta uchrashuvi ham sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin, degan fikr ham yo‘q emas. Jadidchilik milliy ozodlik xarakatinnig otashin targ‘ibotchisi Ismoilbek G‘aspirali Turkistonda “Tarjimon” gazetasiga muharrirlik qilib turgan bir paytda ushbu uchrashuvlar amalga oshiriladi.

Ismoilbek G‘aspirali ortidan qo‘yilgan peterburglik ayg‘oqchilar ikki xalq g‘oyaviy rahbarlarining bot-bot uchrashib turganlaridan xavotirga tushganlar. Ularni ta’qib etib, mavh etish chorasini ko‘rganlar.

Uchrashuvda Rossiya hukumatidan norozilik, turkiy xalqlar ozodligi va mustaqilligi haqida gap borganligi ehtimoldan holi emas. Jo‘rabek favqulodda holatda o‘ldirilgach, Ismoilbek G‘aspirali Turkistonni tark etadi. Keyin Misr, Hindiston musulmonlari orasida ish olib boradi.

Jo‘rabek vafotidan keyin ham gazetalarda qotillikka doir bir qator ma’lumotlar berib borilgan. Lekin, asosiy fikr ochilmasdan qoladi. Jo‘rabekning o‘limiga Rus hukumatining bu qadar beparvoligi qotillikka ularning o‘zлari aloqador, degan shubha tug‘diradi. Shu tariqa Kitoblik birinchi o‘zbek generali Jo‘rabekning hayoti fojiali yakun topadi. U murakkabliklar, qarama-qarshiliklardan iborat hayoti davomida hamisha xalqi tomonida bo‘ldi. Davrning ziddiyatlari to‘laligicha uning hayotida aks etdi. Nimaiki bo‘lmasin, Jo‘rabek jasur va mard o‘zbek o‘g‘loni sifatida Kitob tarixida, O‘zbekiston tarixida qoladi”[4].

### Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Shahrisabz va Kitob bekliklari Rus bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashdilar faqat qurol yarog‘ va son jihatdan ustun bo‘lgan ruslar g‘alabaga erishdilar. Shahrisabz va Kitob bekligini o‘ziga bo‘ysindira olmagan amir Muzaffar ruslar yordami bilan bu o‘lkaga o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Shahrisabz va Kitobga qarshi rus generali Abramov juda katta tayyorgarlik ko‘rdi va har bir qilgan ishini Kaufmanga yozma tarzda bayonat bergen. Chunki ruslar Buxoro amirligiga qarshi urushda Samarqandda Shahrisabzlik jangchilarni qiyinchilik bilan to‘xtatgan edi. Shuning uchun ular Shahrisabzga qarshi urushni puxta rejalar asosida olib bordilar.

### Adabiyotlar

[1] Некролог //«Исторический вестник». 1906, т. 105



[2] Ш. Юсупов Худоёрхон ва Фурқат. -Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни, ни, 1995. 96 6.

[3]Бартольд V.V. »Туркестан в эпоху монгольского нашествия". Волосы. Том.1. М.. 1968, стр. 24.

[4] П. Равшанов Шахрисабз тарихи. Тошкент «Янги аср авлоди, 2011. – Б. 471.

[5] Одилов.А.А. Бухоро амирлигига миллий озодлик харакатлари тарихи: Тарих фан. номзоди ... дис. - Тошкент: Ўзму, 2003. - 147 б.

[6] Туркестанской областной газеты от 8 февраля 1906 г.

## MUHAMMAD ALI O'TKAZGAN ISLOHOTLARNING MISRNING XALQARO MAYDONDAGI MAVQEYINI MUSTAHKAMLASHDAGI O'RNI

Toshtemirov Akram Mengli o'g'li  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi  
ORCID: 0009-0001-9573-1070,  
E-mail: akramtoshtemirov5577@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Misrning Muhammad Ali davridagi harbiy va tashqi siyosiy tizimini o'rghanishga bag'ishlangan. Bu davr Usmoniyalar imperiyasi siyosiy jihatdan ancha tanazzul bosqichiga kirib qolgan, G'arbiy Yevropa davlatlarining esa Afrika qit'asi davlatlariga qiziqishi ortgan bir davrga to'g'ri keladi. Ana shunday bir davrda Misrda mustamlakachilarga qarshi kurashish va shu bilan birgalikda mintaqadagi eng yirik imperiya Usmoniyalar davlati ta'sir doirasidan chiqish harakatlarini o'rghanish esa ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so'zlar: Misr, usmonlilar, mamluklar, K.Fahmi, zamonaviy Misrning "asoschi otasi", vahhobiy, Muhammad Alining "qilich strategiyasi", Angliya-Turkiya urushi, S.A.Bogomolov, harbiy islohot.

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению военной и внешнеполитической системы Египта времен Мухаммеда Али. Этот период совпадает с периодом, когда Османская империя вступила в фазу значительного политического упадка, в то время как западноевропейские государства проявляли повышенный интерес к государствам африканского континента. Изучение действий по борьбе с колонизаторами в Египте в такой период и вместе с тем выход из сферы влияния крупнейшего в регионе имперского Османского государства определяет актуальность данной статьи.

**Ключевые слова:** Египет, османы, мамлюки, к.Фахми," отец-основатель "современного Египта, ваххабиты," стратегия мече " Мухаммеда Али, англо-